



Yoshlarning ilm-fandagi ro‘li

Respublika ilmiy-amaliy onlayn
konferensiyasi
To‘plami



«YOSHLARNING ILM-FANDAGI RO'LI» NOMLI ILMIY, MASOFAVIY, ONLAYN KONFERENSIYASI

O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2019-yil 31-avgustdagi "Yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ularning faolligini qo'llab-quvvatlash tizimini jadallashtirish to'g'risida"gi qarorida tutilgan vazifalarni ijrosini ta'minlash maqsadida «Research academy» MChJ tomonidan ta'sis etilgan «Tabiyat va ta'lim» va «Tabiiy fanlar va pedaogika» ilmiy-uslubiy jurnallarining (O'zbekiston respublikasi prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikasiyalarni rivojlantirish agentligining 649311-sonli guvohnoma) "Yoshlarning ilm-fandagi ro'li" nomli ilmiy, masofaviy respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasini e'lon qiladi.

Konferensiya to'plami zenodo, open aire, researchgate va internet archive bazalarida indekslanadi. Konferensiya to'plamiga quyidagi yo'nalishlar bo'yicha maqolalar qabul qiladi:

1. Aniq fanlar
2. Tabiiy fanlar
3. Texnika fanlari
4. Pedagogika fanlari
5. Ijtimoiy-gumanitar fanlar
6. Tibbiyot fanlari
7. Iqtisod fanlari
8. Qishloq xo'jaligi fanlari

Eslatma! Konferensiya materiallari to'plamiga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma'lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to'g'riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

SUG'ORILADIGAN O'TLOQI-TAQIR TUPROQLARNING ANTROPOGEN OMILLAR TA'SIRIDA O'ZGARISHI (G'ijduvon tumani misolida)

Salimova H.X.
tayanch doktorant,
Buxoro davlat universiteti

Annotasiya. G'ijduvon tumanida sug'orilib dehqonchilik qilinadigan maydonlarni 13,7 % ni o'tloqi-taqir tuproqlar tashkil etadi. Ushbu tuproqlarni mexanik tarkibini antropogen omillar ta'sirida o'zgarishi keltirilgan. 1984-2022 yillar davomida tuproqning mexanik tarkibi og'irlashib, yengil qumoqdan o'rta qumoqqa o'tganligi aniqlangan. Bundan tashqari tuproqning haydalma va haydalma osti qatlamlari qalinlashganligi kuzatilgan.

Kalit so'zlar: Sug'oriladigan, o'tloqi-taqir, tuproq, antropogen omil, xossa va xususiyatlar.

Kirish. Butun dunyo bo'yicha tuproqlarni sho'rlanishi, eroziyasi, meliorativ holatini yomonlashuvi, botqoqlanish, sahrolanish va degradasiyasi kabi jarayonlarni oldini olish, qishloq xo'jaligiga yetkaziladigan zararlarini baholash, sug'oriladigan tuproqlardan samarali foydalanish uchun ularni evolyusiyasini o'rganish, ilmiy tavsiyalarga asoslangan holda ulardan samarali foydalanish bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Buxoro viloyatidagi sug'oriladigan tuproqlarning evolyusiyasi va unumdorligini, ushbu tuproqlarning evolyusiyasida tabiiy hamda antropogen omillarning o'zaro ta'siri o'rganilgan. Sug'orish suvlari ta'sirida cho'l mintaqasidagi voha tuproqlari tarqibidagi gumus miqdori va zahirasi, tuz tarkibi va migrasiyasi, shuningdek tuproqlarning biologik va agrokimyoviy xossalarini o'zgarishi aniqlangan. [2, B.47-51, 3, B.62].

Buxoro vohasidagi sug'oriladigan tuproqlarning xossa-xususiyatlari turli iqlim okruglari bo'yicha bir-biridan keskin farq qilar ekan. Voha tuproqlarining hosil bo'lish jarayonlari, tarqalishi, xossa va xususiyatlari, mexanik tarkibi va umumiyfizik xossalari o'rganilgan. [1, B.63, 4, B.350, 5, B. 208, 6, B.22-101].

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani sug'oriladigan tuproqlarining antropogen omillar ta'sirida o'zgarishi va ulardan qishloq xo'jaligida samarali foydalanish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmagan. Shuning uchun tumanda tarqalgan tuproqlarning evolyusiyasi, xossa va xususiyatlarini antropogen omillar ta'sirida o'zgarishi, ulardan samarali foydalanish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borish dolzarb hisoblanadi.

G'ijduvon tumani – Buxoro viloyatining tumani hisoblanib, viloyatning shimoliy - sharqiy tomonida joylashgan. 2022 yil ma'lumotlariga ko'ra, tumanning umumiy yer maydoni 384,068 ming gektar, shundan qishloq xo'jalik yerlari 27,007 ming gektar, shundan sug'orilib dehqonchilik qilinadigan yerlar 19,994 ming

gektarni tashkil etadi. Tumanda sug'oriladigan tuproqlarning 13,7 % ni o'tloqi-taqir tuproqlar tashkil etadi. Ushbu tuproqlar sharoitida asosan g'oz va g'alla ekinlari yetishtiriladi. Ushbu tuproqlarning xossa va xususiyatlarini o'rganish orqali ulardan samarali foydalanish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega

Tadqiqot materiallari va uslublari. Dala tadqiqotlari G'ijduvon tumanidagi sug'oriladigan tuproqlar sharoitida olib borildi. Tuman tuproqlarining genezisi, evolyusiyasi, mexanik tarkibi, xossa va xususiyatlari, unumdorligini saqlash va oshirish, sho'rlanish tipi va darajasi, tuproqlarning meliorativ holatini yaxshilash va ularga antropogen omillarning ta'siri kabi ilmiy-tadqiqot ishlari tuproqshunoslikda umumqabul qilingan uslublarning profil – genetik, morfologik, tuproqli so'rim, fizikaviy, fizik – kimyoviy, kimyoviy analitik asosida, laboratoriya tahlillari "Методы агрохимических, агрофизических и микробиологических исследований в поливных хлопковых районах", "Методы агрофизических исследований почв Средней Азии", "Методы исследования физических свойств почв и грунтов", "Tuproqning tarkibi xossalari va analizi" kabi uslublarning asosida olib borilmoqda. Olingan natijalar B.A.Dospexov (1985) bo'yicha matematik, statistik va dispersion tahlil qilingan.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Sug'oriladigan o'tloqi – taqir tuproqlar asosan Buxoro viloyatining Romitan, Peshku, Shofirkon va G'ijduvon tumanlarida uchraydi. Sug'oriladigan o'tloqi–taqir tuproqlar qadimgi allyuvial tekisligi yerlarida joylashgan. Ular yer osti suvlarining sathi tabiiy yoki sun'iy pasayishi sababli tuproq hosil bo'lish jarayonlariga ta'siri kamayganda rivojlanadi. Sug'oriladigan o'tloqi-taqir tuproqlar oraliq o'tuvchi hisoblanadi va oldingi o'tloqi va hozirda rivojlanayotgan taqir tuproqlarning belgilarini saqlab qolgan.

Buxoro vohasining o'tloqi-taqir tuproqlari qadimdan sug'oriladigan va 1,0 – 2,0 m qalinlikdagi agroirrigasion qatlamlaridan tarkib topgan va mexanik tarkibi o'rta va yengil qumoqli. Bu tuproqlarning haydalma qatlamida gumus 0,5-1,1% va yalpi azot 0,04-0,12%. Sizot suvlarining nisbatan yaxshi tabiiy harakatlanishiga qulay bo'lgan va vohaning yuqori qismida joylashgan o'tloqi-taqir tuproqlar sho'rxoklanish jarayonlariga o'tloqi tuproqlarga nisbatan kamroq chalinadi. Ular asosan kuchsiz sho'rlangan va sho'ri yuvilgan bo'ladi. Sho'rlanish tipi sulfatli, kamdan-kam hollarda xloridli-sulfatli sho'rlanish uchraydi. Tuproqlar tarkibida gips miqdori 0,08-0,42%, karbonatlar 7,4 - 9,2%ni tashkil etadi.

Tuproqning asosiy ko'rsatkichlaridan biri tuproqning mexanik tarkibi hisoblanadi. Shuning uchun tuproqning mexanik tarkibi tahlil qilindi. Kalit maydon 1984 yil I.N.Felisiant ma'lumotlari bilan taqqoslandi. Olingan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, 1984 yil tuproqning haydalma (0-20 sm) qatlamida fizik loy miqdori 25,2 % bo'lgan bo'lsa, haydalma osti (20-50 sm) qatlamda fizik loy miqdori 21,5 %, mexanik tarkibi yengil qumoq bo'lgan bo'lsa, 2022 yil haydalma (0-25 sm) qatlamda fizik loy miqdori 33,2 %, haydalma osti (25-57 sm) qatlamda fizik loy miqdori 35,9 % ikkala qatlamda ham mexanik tarkibi o'rta qumoq ekanligi aniqlandi. 1984 yil I.N.Felisiant ma'lumotlariga ko'ra, tuproqning pastki (65-75 sm) qatlamida fizik loy miqdori 16,5 %, mexanik tarkibi yengil qumoq bo'lgan bo'lsa,

2022 yilga kelib 57-98 sm qatlamda fizik loy miqdori 32,3 % bo'lib, mexanik tarkibi bo'yicha o'rta qumoq ekanligi aniqlandi. Uzoq (38) yillar davomida tuproqning mexanik tarkibi sug'orish suvlari tarkibidagi loyqa zarralar miqdori ta'sirida mexanik tarkibi og'irlashib borgan. (1 - jadval).

1984-2022 yillar davomida haydalma qatlam 5 sm ga, haydalma osti qatlam esa 2 sam oshganligi aniqlandi.

1 - jadval

**Buxoro viloyati G'ijduvon tumani sug'oriladigan o'tloqi-taqir
tuproqlarining mexanik tarkibi**

Qatlam chuqurligi, sm	Zarrachalar miqdori %, o'lchami mm							Fizik loy	Tuproq mexanik tarkibi
	>0,25	0,25- 0,1	0,1- 0,05	0,05- 0,01	0,01- 0,005	0,05- 0,001	<0,001		
14 – kesma. Sug‘oriladigan o‘tloqi-taqir tuproq (I.N.Felisiant, 1984 y.)									
0-20	0,30	3,58	33,65	37,30	6,67	8,90	9,60	25,2	yengil qumoq
20-50	0,28	2,11	39,44	36,65	6,17	8,05	7,30	21,5	yengil qumoq
65-75	0,10	0,75	25,05	57,60	6,35	5,45	4,70	16,5	yengil qumoq
100-110	0,26	0,21	1,98	13,65	27,15	35,45	21,30	83,9	o‘rtacha soz
145-155	0,07	0,11	3,78	36,82	23,30	21,75	14,17	59,2	og‘ir qumoq
4 - Kesma. Sug‘oriladigan o‘tloqi-taqir tuproq (H.X.Salimova, 2022 y.)									
0-25	4,8	1,1	28,8	32,1	10,9	14,8	7,5	33,2	o‘rta qumoq
25-57	6,8	1,7	22,2	33,4	12,7	15,2	8,0	35,9	o‘rta qumoq
57-98	4,2	1,3	26,6	35,6	13,2	15,6	3,5	32,3	o‘rta qumoq
98-122	4,5	1,1	4,4	14,7	21,4	35,6	18,3	75,3	o‘rtacha soz
122-178	0,2	0,3	25,5	27,1	18,3	20,2	8,4	46,9	og‘ir qumoq

Xulosa qilib aytganda, G'ijduvon tumani sug'oriladigan o'tloqi-taqir tuproqlarning mexanik tarkibi 1984 yil va 2022 yillar davomida antropogen (sug'orish) omillar ta'sirida haydalma va haydalma osti qatlamlarning qalinlashganligi hamda fizik loy miqdorining oshishi hisobiga mexanik tarkibi og'irlashib borganligi aniqlandi. Bunda fizik loy miqdori haydalma qatlamda 8,0 %ga, haydalma osti qatlami esa 14,4 % ga oshganligi aniqlandi. Antropogen omil, ya'ni sug'orish suvlari ta'sirida tuproqning agroirrigasion qatlami qalinlashib, mexanik tarkibi og'irlashib borar ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Абдуллаев С., Турсунов Л., Қурвантаев Р. Ўзбекистонда суғориладиган тупроқлар унумдорлигини оширишда унинг физик ва структура ҳолатини яхшилашга оид тавсиялар Тавсиянома. -Тошкент, 2004 - 63 б.
2. Артикова Х.Т. Бухоро воҳаси суғориладиган ўтлоқи аллювиал тупроқларининг умумий физик ва айрим сув-физик хоссалари, уларнинг аҳамияти // “ЎЗМУ хабарлари” журнал Тошкент - 2018. №3/1- Б. 47-51.,
3. Артикова Х.Т. Бухоро воҳаси тупроқларининг экологияси, экологик ҳолати ва унумдорлиги: Б.ф.д...дисс. Автореферат. Тошкент. 2019. - 62 б.
4. Қўзиев Р., Сектименко В.Е. Почвы Узбекистана. – Тошкент, 2009.-350 с.
5. Қўзиев Р.Қ., Абдурахмонов Н.Ю. Суғориладиган тупроқлар эволюцияси ва унумдорлиги. - Тошкент “Navroz”, 2015. - 208 б.,
6. Фелициант И.Н., Конобеева Г.М., Горбунов Б.В., Абдуллаев М.А. Почвы Узбекистана (Бухарская и Навоийская области). – Ташкент: Изд-во «Фан», 1984. - С. 22-101.

Ишлаб чиқариш жараёнларида хорижий давлатларнинг почта жўнатмаларини ишлов беришнинг автоматлаштирилган Фаолиятининг ўзига хос усуллари

Ахмадбеков Хокимбек Хасан ўғли
ТДТУ мустақил изланувчиси

Аннотация: Мазкур ишда ишлаб чиқариш жараёнларида хорижий давлатлардан келадиган почта жўнатмаларига ишлов бериш жараёнларини автоматлаштириш масалалари таҳлил қилинган. Хусусан, автоматлаштирилган идентификация, таснифлаш, кузатиш ва етказиб бериш механизмларининг техник ва дастурий таъминоти ҳақида маълумотлар берилган.

Калит сўзлар: автоматлаштирилган тизим, электрон хизмат, электрон тижорат, тамға.

Хорижий давлатларда почта жўнатмаларини ишлаб чиқариш ва саралаш жараёнларини автоматлаштиришда турли усуллар ва технологиялар ишга солинган. Бу жараёнлар, асосан, юқори самарадорликка эришиш ва жўнатмаларнинг тез ва аниқ етказиб беришини таъминлаш учун турли технологиялардан фойдаланишга асосланган. Қуйидаги хорижий давлатларнинг почта жўнатмаларида ишлов беришнинг автоматлаштирилган фаолиятига хос баъзи йўللари ва усуллари тўғрисида маълумотлар келтирилади:

Кейинги йилларда дунёда янги бизнес - электрон савдо-сотик жадал ривожланмоқда, у истеъмолчиларга онлайн режимида (масофадан) товарларни сотиб олиш ва хизматлардан фойдаланиш имконини беради.

	refleksiv rawajlandiriv	pikirlawin	97
P.Qaxorov	Go'zallikni axloqiy baholash va uning individual va ijtimoiy ahamiyati		100
S.Yusupova M.Pozilova	“Iqbol” gazetasi materiallari asosida 2011 yilda O'zbekistonda sport rivojlanishi		103
J.Holmirzayev	Qadimgi asarlarda olinma so'zlarning tadqiqi		108
J.Holmirzayev	Olinma so'zlar va tilshunoslik: XVI-XIX asr ilmiy manbalaridagi tahlillar		110
Sh.Qudratova	Geografiya fanini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish (8-sinf, buxoro viloyati mavzusida)		113
H.Salimova	Sug'oriladigan o'tloqi-taqir tuproqlarning antropogen omillar ta'sirida o'zgarishi (G'ijduvon tumani misolida)		118
X.Ahmadbekov	Ишлаб чиқариш жараёнларида хорижий давлатларнинг почта жўнатмаларини ишлов беришининг автоматлаштирилган фаолиятининг ўзига хос усуллари		121
J.Bekbagambetova	Maktab o'quvchilarida kolloborativ ko'nikmalarni rivojlantirishning tashkiliy- pedagogik asoslari.		125
I.Xudoyqulov F.Ollokulova	How costs differ in manufacturing, services and agriculture industries.		130
Н.Олжабаева Ж.Байзаков	«Әпке» пьесасы – қазақ отбасылық құндылықтарының айнасы		133